



Aziza **FAYZULLAEVA**,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail [azizaayzullaeva@gmail.com](mailto:azizaayzullaeva@gmail.com)

DSc A.Shaymanova taqrizi asosida

### XOTIN-QIZLARDA MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada qizlarda mas'uliyatni shakllantirishning ahamiyati va bu jarayonga ta'sir etuvchi turli ijtimoiy, oilaviy va ta'limiy omillar o'rganiladi. Mas'uliyat shaxsning jamiyatda o'z o'rnini aniq belgilashi, vazifalarini sidqidildan bajarishi va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Oila qizlarda mas'uliyatni shakllantirishdagi asosiy omil hisoblanadi, ya'ni otalarning tarbiya usullari, ularning farzandlari bilan munosabati va namuna sifatida tutgan pozitsiyasiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni orqali mas'uliyatni rivojlantirishning turli metodlari, xususan, ustozlarning faoliyati, innovatsion o'qitish usullari hamda jamoaviy ishlarning o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga qizlarning ijtimoiy faoliyati, volontyorlik harakatlarida qatnashishi va turli jamoatchilik tadbirlaridagi ishtiroki orqali mas'uliyatni shakllantirish imkoniyatlari o'rganiladi. Maqolada muallif mas'uliyatni oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali ijtimoiy usullar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** mas'uliyat, qizlar, ta'lim, oila, ijtimoiy faoliyat, shaxsiy rivojlanish.

### МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У ЖЕНЩИН

Аннотация

В статье рассматривается важность развития ответственности у девочек и различные социальные, семейные и образовательные факторы, влияющие на этот процесс. Ответственность тесно связана со способностью человека четко определять свое место в обществе, добросовестно выполнять свои обязанности и принимать самостоятельные решения. Семья является основным фактором развития ответственности у девочек, то есть подчеркиваются методы воспитания родителей, их отношения с детьми и их роль как образца для подражания. Также анализируются различные методы развития ответственности в рамках образовательного процесса в учебных заведениях, в частности, деятельность учителей, инновационные методы обучения и роль командной работы. Одновременно изучаются возможности развития ответственности через социальную активность девочек, участие в волонтерской деятельности и участие в различных общественных мероприятиях. В статье автор предлагает эффективные социальные методы, которые можно использовать для повышения ответственности.

**Ключевые слова:** ответственность, девочки, образование, семья, общественная деятельность, личностное развитие.

### METHODS OF FORMING RESPONSIBILITY IN WOMEN

Annotation

This article examines the importance of developing responsibility in girls and the various social, familial, and educational factors that influence this process. Responsibility is closely linked to a person's ability to clearly define their place in society, conscientiously fulfill their responsibilities, and make independent decisions. Family is a key factor in developing responsibility in girls, emphasizing parental upbringing methods, their relationships with their children, and their role as role models. Various methods for developing responsibility within the educational process in educational institutions are also analyzed, particularly teacher interventions, innovative teaching methods, and the role of teamwork. The article also explores the potential for developing responsibility through girls' social activism, volunteering, and participation in various community events. In this article, the author proposes effective social methods that can be used to foster responsibility.

**Key words:** responsibility, girls, education, family, social activities, personal development.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson qadri va manfaatlarini himoya qilish, har qanday holatda ham uning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi yotibdi. Xususan, qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini erkin namoyon qilishlari uchun sharoit yaratish, qizlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'z iqtidorlarini namoyon qilishiga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qizlarni o'qitish butun jamiyatni, millatni o'qitish bilan barobar ekani hammamizga ma'lum. Shu sababli, bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan biri bu umumiy ta'limdan tashqari oliy ta'limda ham ayol-qizlar

ulushini oshirish, kasbga tayyorlash va ularning nafaqat oiladagi, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish masalalari yig'ilishlar kun tartibida, shu bilan birga, prezidentimizning qator farmon va qarorlarida o'z aksini topmoqda.

Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida, prezidentimiz "Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturi"ni qabul qilish, "Olima ayollar jamiyati" va "Oqila ayollar" harakati tuzilishi haqida ham gapirgan edi [1]. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-avgustdagi [2] "Oqila ayollar" harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ayollar, ayniqsa, yosh qizlarda oilaga va vatanga sadoqat, fidoyilik, tashabbuskorlik tuyg'ularini singdirish, "odobli qiz" va "ma'rifatli ona" qiyofasini shakllantirishga qaratilgan chora-

tadbirlarni amalga oshirish; farzand, ayniqsa, qizlar tarbiyasi, oila, onalar ma'naviyatini yuksaltirish, oilalarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib etish, o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlikni shakllantirish, oila tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlashga ko'maklashish; yoshlar o'rtasida oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida bo'lish masalalarini hamda "Oila – muqaddas" tushunchasini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Oqila ayollar" harakati o'z faoliyatini boshladi [2].

**Metod va metodologiya.** Maqolani nashrga tayyorlashda, ilmiy manbalardan foydalanishda, materiallarni tizimlashtirishda va xulosalarni umumlashtirish jarayonida falsafiy tadqiqotning tarixiylik, tanqidiylik, analiz, sintez metodlaridan foydalanildi. Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari, Farmonlari, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida bayon qilingan konseptual g'oyalari tashkil qiladi. Shuningdek qizlarimizning ijtimoiy-ma'naviy qarashlari, zamonaviy ta'limga oid fikrlarini tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish uchun, monografik tadqiqotlar, respublika va xorij miqyosida o'tkazilgan ilmiy - amaliy konferensiya materiallari, ilmiy maqolalar, xorijlik olimlar asarlaridan foydalanildi. Shuningdek jamiyat taraqqiyotining yangi davrida ommaviy axborot vositalari, jumladan internetda e'lon qilinayotgan, xotin-qizlarning ijtimoiy masalalar mazmunini ochib berishga qaratilgan fikrlar, O'zbekistonlik va xorijdagi faylasuflar, tarixchilar, adabiyotchilarning fikr-mulohazalaridan foydalanildi.

**Olingan natijalar.** Qizlarda mas'uliyat hissini shakllantirish ularni intellektual salohiyatli, faol va mustaqil shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon oila muhitida boshlanib, maktab va jamiyatda davom etadi. Ota-ona va ustozlarning shaxsiy namunasi, rag'batlantirish, ijtimoiy loyihalarga jalb etish hamda psixologik yondashuvlar samarali usullardan sanaladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali qizlarda ijobiy namuna va motivatsiya shakllantirish mumkin. Mas'uliyatni shakllantirishda tizimli va barqaror yondashuv qo'llanilsa, u kelajakda bilimli, ishonchli va faol ayollarni tarbiyalashda mustahkam asos bo'ladi. Maqolada keltirilgan tahlillar o'quvchilarga qizlarda mas'uliyatni shakllantirish jarayoni, uning ahamiyati va zamonaviy usullari haqida kengroq va chuqurroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlardan pedagoglar, psixologlar, tarbiyachilar, ta'lim sohasi mutaxassislari hamda yoshlar tarbiyasiga qiziquvchi tadqiqotchilar o'z ishlarida samarali foydalanishlari mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Qizlarimizning jamiyatda mas'uliyatli bo'lishi, milliy va umum insoniy qadriyatlar ruhida kamol topishida, yangi zamonaviy kasblarni egallashiga, poliglottlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik xususiyatlarini shakllantirishga oid ijtimoiy-falsafiy g'oyalari va konseptual fikrlari ifodalangan merosini o'rganish xususan, xorijiy olimlar amerikaliklar Borman, K.M., Fishbein, H.D. [3], Carreon, S., Cassedy, A., Borman, K., Dubeck, P. [4] jamiyatshunos, tarixchi, faylasuf olimlar tomonidan olib borilgan monografik tadqiqotlar, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida Подшивалов В.Н.,[9] Лаказова Г.В.[10] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, O'zbekistonlik jamiyatshunos olimlaridan M.Irgasheva [6], N.M.Egamberdiyeva, F.U.Xamdanova,[11] M.Xolmatova, S.Safayeva, [7] A.Xuseynova, [8], N.R.Nishonova [12], ilmiy tadqiqot ayollar ijtimoiy faollogini oshirish, ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning o'rni, xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi masalalari ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy, estetik qarashlari, maorif va zamonaviy ta'limni isloh qilishdagi

jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirilgan konseptual fikrlar mazmuni mustaqil yondoshuv asosida o'rganilgan.

**Muhokama.** Har qanday falsafiy tushunchalar tizimi o'zining fundamental va eksperimental asoslarini metodologik jihatdan ta'minlagan holdagina, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan falsafiy bilimlar tizimida «shaxs mas'uliyati»ni shakllantirishning nazariy, praktsiologik yo'nalishlarini, metodologik asoslarini konkretlashtirish zaruriyati dolzarb falsafiy muammo bo'lib qolmoqda.

Shuning bilan bir qatorda «shaxs mas'uliyati» tushunchalarini strukturali-funksional tahlil qilish, ularning tarkibiy elementlari, rivojlanish darajalari o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beruvchi ijtimoiy-falsafiy uslublar majmuasiga tegishli tarzda yondoshishning falsafasi sohalaridagi amaliy faoliyatiga sabab bo'lib qolmoqda.

Bugun mamlakatimiz O'zbekistonda keng qamrovi islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatini yuksaltirish har qachongidan ham muhimligi namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, globallasuv sharoiti ta'sirida avj olayotgan "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlarga qarshi turishda shaxsda mas'uliyat tuyg'usini takomillashtirish bugungi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, insonni hayvonot olamidani farqlovchi jihati bu unda mas'uliyat hissining mavjudligidadir. Mana shu mas'uliyat tuyg'usi orqali inson o'zining ma'naviy mavjudot ekanligini anglab boradi. Inson o'zining ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqarish lozimligini anglab yetgan sari o'zligini angalay boshlaydi. "Mas'uliyat ijtimoiy xarakterga ega. Ijtimoiy mas'uliyat oilaviy, fuqarolik, jamiyat va shaxsiy xizmatlarni bajarayotganda vujudga keladi"[11].

Qizlarda mas'uliyat sifatlarini rivojlantirish ularda mustaqillik, shijoatlilik, dominantlilik, o'ziga ishonchlilikni shakllantirishga xizmat qiladi. "Mas'uliyat" – falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda insonning anglanilgan hatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu falsafiy kategoriya orqali insonlarning ijtimoiy-ma'naviy, moddiy-jismoniy, ruhiy-tabiiy mas'uliyat kabi xislatlari qamrab olinadi va tahlilga tortiladi [5].

Mutafakkir olim Abdurauf Fitrat mas'uliyatni shaxsning "ma'naviy xatti – harakatlari majmui" sifatida talqin etadi. Darhaqiqat, inson ma'naviy mavjudot ekan, uning xatti – harakatlarida ham ma'naviylik aks etishi tabiiy holdir [5].

Mas'uliyatda shaxsning o'ziga xos ma'naviy jihatlari namoyon bo'ladi. Masalan iymon-e'tiqodlilik, vijdoniylik, or-nomuslilik, irodalilik, ruhan poklik, samimiylik, g'ururlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik. Demak, ma'naviy barkamol shaxsni shakllanishida mas'uliyatning o'rni beqiyos. "Mas'uliyat" arab tilidan olingan bo'lib, "javob bermoq", "javobgar bo'lmoq" degan ma'nolarni anglatadi [6].

Qizlarda mas'uliyatni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u oilaviy, ta'limiy va ijtimoiy omillarga bog'liq. Mas'uliyatni oshirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

Ota-onalar va o'qituvchilar uchun maxsus treninglar o'tkazish.

Ta'lim jarayonida yoshlarning shaxsiy tashabbusini rag'batlantirish [11].

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida ayollarning, xususan, qizlarning faol ishtiroki tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, qizlarda mas'uliyat hissini shakllantirish nafaqat oila, balki ta'lim muassasalari va jamoatchilik zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Mas'uliyatli shaxs – bu ongli, o'zi va boshqalar oldida javobgarlikni his etadigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan inson demakdir. Qizlarda ushbu fazilatni shakllantirish kelajakda mustahkam oila, barkamol jamiyat poydevorini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiz bola uchun birinchi tarbiya maktabi bu oila. Ota-ona farzandlariga mas'uliyatli bo'lishni shaxsiy namuna orqali o'rgatishi lozim. Masalan, uy ishlariga javobgarlik berish, vaqtini to'g'ri taqsimlash, va'daga vafodan qilib kabi oddiy ko'nikmalar orqali mas'uliyat shakllanadi.

Ta'lim muassasalarida qizlarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan faoliyatlar, ijtimoiy loyihalar, guruh ishlari orqali ularda jamoaviy ishda mas'uliyat hissini oshirish mumkin. Ustozning shaxsiy namunasi, talabchanligi va ishonch bilan yondashuvi muhim omillardan hisoblanadi.

Har bir qiz bola alohida individuallikka ega. Shundan kelib chiqib, ularda mas'uliyatni shakllantirishda muloqot, motivatsiya, ijobiy rag'batlantirish, rol o'yinlari va treninglardan foydalanish samarali hisoblanadi. Psixologik yordam orqali qizlarda o'ziga ishonch va shaxsiy qadriyatlariga e'tibor oshadi.

Zamonaviy axborot muhitida qizlar turli ta'sirlarga uchraydi. Mas'uliyatli kontentlar, ijobiy qahramonlar, yetakchi ayollar haqidagi materiallar qizlarda motivatsiya uyg'otadi va shaxsiy rivojlanishga undaydi. Shuningdek, turli media ta'lim dasturlari orqali qizlar salohiyatli va tanqidiy fikrlashni o'rganishi mumkin.

**Xulosa.** Qizlarda mas'uliyatni shakllantirish ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mas'uliyatli yoshlar jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanadi. Oila, ta'lim va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik orqali yoshlarning mas'uliyatli shaxs sifatida kamol topishiga erishish mumkin. Shuningdek, qizlarning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirish va ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: O'zbekiston,2023. -416 bet.
2. "Oqila ayollar" harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/>
3. Borman, K.M., Fishbein, H.D. Evolution, Culture, and Social Change. 2019.
4. Carreon, S., Cassedy, A., Borman, K., Dubeck, P. Women and Work. 2013.
5. Чориев .А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Тошкент: Chinor ENK, 2002, -Б. 204.
6. Иргашева .М. Фуқаролик масъулияти. // Таълим тизимида ижтимоий – гуманитар фанлар.2012, № 2, -Б.24.
7. Холматова М., Сафаева С., Аёллар масаласи: умулжтимоий ва миллий жихатлар.-Тошкент: Ўзбекистон,2003. -162 б.
8. Хусейнова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар. –Бухоро, 2009. Б.88.
9. Подшивалов В.Н. Социальная ответственность личности: философски–антропологический аспект. Автореферат канд. филос.н. – Челябинск; 2009;
10. Лаказова Г.В. Долженствовании и ответственность в системе социальных отношении. Автореферат канд. филос.н.– Ставрополь; 2011.
11. "O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami / "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – 228 b.
12. Nishonova N.R. O'zbekiston davlat boshqaruv tizimida xotin-qizlar faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili. F.f.d.,(DSc) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2020. -260 bet.
13. Amridinova D.T. Jadidchilik ta'limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati. Monografiya. Toshkent, Iqtisodiyot, 2023 yil
14. Amridinova D.T. Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlar va yoshlarda milliy tarbiya masalalari. // Globallashuv jarayonlari, ma'naviy tahdidlar, yoshlar ta'limi va tarbiyasi mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. (3 qism) Navoiy. 2016.